



# Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

## RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **2.9 mingtaga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **1,1 f.p. kamaydi**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **3,8 mingtaga oshgan.**

2018 yilning yanvar-may oyida Toshkent shahrida 5,4 mingga yaqin korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,4 mingtaga ko'pdir.


Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga kamaygan hamda ularning soni 1,5 mingtani tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 2,9 mingta (4,6%) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 64,2 mingtani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Yunusobod tumanida (13,6%), Chilonzorda (12,6%), Mirzo Ulug'bekda (11,9%) va Olmazorda (10,1 %) tumanlarida kuzatilmoqda.

## Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), ming birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar  
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	ming birlik	jamiga nisbatan %	ming birlik	jamiga nisbatan %
<b>Toshkent shahar</b>	<b>66,1</b>	<b>100,0</b>	<b>64,2</b>	<b>100,0</b>
tumanlar:				
Uchtepa	5,6	8,5	5,4	8,4
Bektemir	1,4	2,1	1,3	2,0
Yunusobod	9,1	13,6	8,8	13,7
Mirzo Ulug'bek	7,7	11,6	7,7	12,0
Mirobod	5,7	8,6	5,6	8,7
Shayxontohur	6,7	10,1	6,5	10,1
Olmazor	6,6	10,0	6,5	10,1
Sergeli	3,7	5,6	3,7	5,8
Yakkasaroy	5,9	8,9	5,9	9,2
Yashnobod	5,2	7,9	4,7	7,3
Chilonzor	8,5	12,9	8,1	12,7

**Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da**




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 97,3 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 2,7 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda 0,9 f.p. kamaygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar      ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 19,6% sanoatda, 19,6% savdoda, 7,4% qurilishda, 7,3% yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 4,3% tashish va saqlash, 3,8% axborotva aloqa, 2,0% sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 1,0% qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida va 35,1% boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da**




**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan**




2018 yil yanva-may holatiga 5444 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 8,9 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Yunusobod tumanida (762 ta), Chilonzor (637 ta), Mirzo Ulug'bek (659 ta) va Olmazor tumanlarida (551 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (127 ta), Sirg'ali (308 ta) hamda Yashnobod (419 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

### Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi savdoda (1383 ta), sanoatda (1041 ta) va qurilishda (617 ta) tashkil etilgan. Eng kami esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (83 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (102 ta), tashish va saqlashda (224 ta) va axborot va aloqada (277 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



## Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
<b>Jami:</b>	<b>4996</b>	<b>5444</b>
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	138	102
Sanoat	1351	1041
Qurilish	495	617
Savdo	867	1383
Tashish va saqlash	198	224
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	472	424
Axborot va aloqa	220	277
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	73	83
Boshqa turlari	1182	1293

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi boshqa faoliyat turlarida (-1,0 f.p dan), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (-0,2 f.p.), tashish va saqlash (-0,1 f.p.dan), soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (-0,1 f.p.dan) kamayganligi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,2 f.p.), sanoatda (+0,2 f.p.dan), axborot va aloqada (+0,3 f.p.dan), Savdo (+0,5 f.p.dan), qurulishda (+0,4f.p.dan) ulushining o'sishiga olib keldi.

### Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+-)
Boshqa turlari	35,1	36,1	-1,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,3	7,5	-0,2
Tashish va saqlash	4,3	4,4	-0,1
Soq'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	2,0	2,1	-0,1
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	1,0	1,0	0,0
Sanoat	19,6	19,4	0,2
Axborot va aloqa	3,8	3,5	0,3
Savdo	19,6	19,1	0,5
Qurilish	7,4	7,0	0,4


### Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 55,8 ming tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 9,0 mingta, oilaviy korxonalar – 2,0 mingta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 43,4 mingta, aksiyadorlik jamiyatlari – 0,2 mingtani va boshqalar 1,1 mingtani tashkil etadi.






## Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, ming birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 3949 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 496 taga yoki 12,5 % ga o'sgan. Shuningdek xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalaridan 1936 tasi qo'shma korxonalar, 2013 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalar soni, birlikda




## Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Mirobod tumani 654 ta (16,5 %), Yakkasaroy 638 ta (16,1 %) va Yunusobod tumanlari 488 ta (12,3 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar Olmazor tumanida 215 ta (5,4 %), Sergeli 155 ta (3,9 %), Uchtepa 118 ta (2,9 %) va Bektemir tumanlarida 96 ta (2,4 %) hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

## Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda






Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 1191 ta (30,2 %), savdoda 984 ta (24,9 %) hamda boshqa faoliyat turlarida esa 928 ta (23,5 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 32 ta (0,8 %), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 59 ta (1,5 %), tashish va saqlashda 137 ta (3,5 %), axborot va aloqada 142 ta (3,6 %), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 192 ta (4,9 %) va qurilishda 284 ta (7,2 %) tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi va sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyat turlariga to'g'ri keladi.



2018 yilning yanvar-aprel oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 490 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 310 taga ko'paygan yoki 2,7 baravarga oshgan.


Bunda, Rossiya Federatsiyasi rezidentlari kapitali ishtirokida – 105 ta, Turkiya Respublikasi – 79 ta, Qozog'iston Respublikasi – 67 ta, Xitoy Xalq Respublikasi-51 ta va Koreya Respublikasi– 36 ta yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan. Shuningdek, 2018 yilda Afg'oniston Islom Respublikasi, Hindiston Respublikasi, Germaniya Federativ Respublikasi, Ukraina, Ozarbayjon Respublikasi va boshqa davlatlar rezidentlari qo'shma faoliyatga qiziqish bildirdilar.

## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-may holtiga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan savdoda 81 ta, sanoatda 71 ta, qurilishda 23 ta, axborot va aloqada 15 ta, va boshqa faoliyat turlarida 59 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


## Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



## Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga Toshkent shaharda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 55,2 mingtani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 iyun holatiga qaraganda 9,4 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 7503 tasi (13,5%) Yunusobod tumaniga, 6959 tasi (12,6 %) Chilonzor tumaniga, 6468 tasi (11,7 %) Mirzo Ulug'bek tumaniga va 5858 tasi (10,6 foizi) Olmazor tumaniga.

### Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, ming birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 55,2 mingta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 12,4 mingtasi (22,6 %) - sanoatda, 12,4 mingtasi (22,6 %) - savdoda, 4,7 mingtasi (8,5 %) - qurilishda, 4,6 mingtasi (8,4 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 2,7 mingtasi (4,9 %) - tashish va saqlashda, 2,3 mingtasi (4,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 1,0 mingtasi (1,9 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, 0,6 mingtasi (1,1 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, shuningdek 14,1 mingtasi (25,7 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida turlariga to'g'ri keladi.


## Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 5,1 mintaga yaqin kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 7,2 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Yunusobod tumaniga (710 ta), Chilonzor (636 ta), Mirzo Ulug'bek (620 ta) va Shayhontohur tumanlarida (553 ta) tashkil etilgan. Eng kam Bektemir (122ta), Sirq'ali (294 ta) hamda Yashnobod (406 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi savdoda (1381ta), sanoatda (1039 ta), qurilishda (617 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (81 ta), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (99 ta) hamda tashish va saqlashda (224 ta) tashkil etilgan.

## Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da






## Oilaviy korxonalar soni

Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 2100 tani tashkil etib, ulardan 2045 tasi yoki 97,3 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yhatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **18,3** %ga oshganligini ta'kidlash lozim.


### Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda





Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 44,7 % yoki 914 tasi sanoat, 16,2 % yoki 332 tasi savdo, 16,0 % yoki 327 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 2,4 % yoki 49 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 36 tasi qurilish, 1,6 % yoki 32 tasi axborot va aloqa, 0,9 % yoki 18 tasi tashish va saqlash, 0,8 % yoki 17 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda 15,6 % yoki 320 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Toshkent shahar statistika boshqarmasi  
Statistik registrarni yuritish bo'limi  
Nashr uchun mas'ul: **A.Rashidov**  
(0371) 230-88-31



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan